


- Sevimli gazetam har bir o'quychining xonadoniga  
kirib borishini istayman, - deydi xorazmlik  
tengdoshingiz Matluba EGAMBERGANOVA



2007-yil  
23 - 29 - iyul  
N:30  
(66623)

Xirmon to'lib to'kildi don,  
to'kildi don...

**DUSHANBADA**

**XUSHXABARLARDAN  
QUVONAMAN**

Mustaqillik tengdoshi bo'lganim uchun ham yurtimdag'i har bir o'zgarish, yangilik-u xushxabarlardan doimo quvonib yashayman. Yurtimiz g'allakorlarining mamlakatimizda birinchi marta 6 million 250 ming tonnalik g'alla xirmoni buniyod etganlari-yu, ularga Prezident bobomizning tabrik yo'llaganlarini o'qib, behad mammun bo'ldim va bu to'g'risida darhol sevimli gazetamga xat yo'llashga ahd qildim.

Yurtimning baxtli qizi sifatida biz uchun shunchalik ko'p rizq-ro'z yetishtirayotgan g'allakorlarning kelgusida bundan ham ulkan zafar quchishlarini istab qolaman.

**TALABALAR - «BUYUK O'ZBEK  
YO'LI»DA**

Aziz bolalar!

Toshguzar - Boysun - Qumqo'rg'on temiryo'l qurilishining 11-shoxobchasida uch yarim mingdan ortiq buniyodkorlar kecha-yu kunduz mehnat qilishmoqda. Toshkent temiryo'l muhandislari instituti talabalari ham ularning saflarida mehnat qilishmoqda. Yillar o'tadi, bir kun kelib, ular bu to'g'rida faxr, iftixor bilan so'zlaydilar. Ularning birinchi suhabatlaridan bebahra qolmang. Gazetamizning keyingi sonlarida ular to'g'risida qiziqarli maqola, suhabat va lavhalarni e'lon qilib boramiz.

**OMON BO'L, BOLAJON!**

«Kamolot» YOIH Markaziy kengashi majlislar zalida qandli diabet bilan kasallangan bemor bolalar va o'smirlar uchun xayriya aksiyasi o'tkazadi.

Ushbu xayriya aksiyasida Toshkent viloyatidan ja'mi 180 nafarga yaqin bemor bolalar hamda 20 nafar tuman va shahar bosh endikrinologlari ishtirok etishdi. Tadbir doirasida Respublika o'quvchi yoshlar markazida faoliyat olib borayotgan «Zamonaviy estrada raqs to'garagi a'zolari tomonidan tayyorlangan madaniy dastur, «Turon» yakkakurashi sportchilarining ko'rgazmali chiqishlari bolajonlarga bir olam quvonch bag'ishladi. Viktorina savol-javoblarida g'olib bo'lgan bolalar esa sovg'alar bilan taqdirlandilar. Jamg'arma tomonidan barcha bolajonlarga, shuningdek, Sirdaryo viloyati endikrinologlari tomonidan ushbu viloyatdagi bemor bolalarga insulin dori vositasi topshirildi.

**DUSHANBAGACHA**



Bugunning bolasi

## BO'BURJONDAN UMIDIMIZ KATTA

Aziz bolajonlar, yodgingizda bo'lsa, gazetamizning avvalgi sonlaridan birida surati muqovamizda e'lon qilingan 9 yoshli skripkachi tengdoshingiz bilan yaqinroq tanishtirishga va'da bergandik.

Ko'pchililingiz, yoshgina bo'la turib skripka chalarkan-a, deya Boburjonga havas qilayotgandirsiz? 5 yoshli chog'idanoq pianino chala boshlaganini eshitib, hayratingizning yana-da ortishi tayin. Undagi musiqaga havas san'atkor dadasidan o'tgan bo'lsa, ajabmas. Bolakaydag'i ishtiyoyqni o'z vaqtida payqab, Glier nomidagi Respublika maxsus musiqiy-akademik litseyga yetaklashdi. Ana shu maktabning 4-sinfini muvaffaqiyatlama omologan Boburjon Mahkamboev talaygina yutuqlarga erishishga ham ulgurdı.

2005-yilda Respublika «San'at g'unchalari» tanlovida qatnashib, 2-o'rinni qo'lga kiritdi. 2006-yilda esa Moskvada bo'lib o'tgan «Shelkunchik» nomli yosh musiqachilarining VII Xalqaro televizion tanlovida ishtirot etdi. Hali ancha yoshligi, bor-yo'g'i ikki yildan buyon skripka chalish mashqini olayotgan bo'lishiga qaramay, Bobur 3ta kuyni ajoyib tarzda ijro etib berdi. Tanloving ikkinchi turiga o'ta olmasa-da, diplom hamda DVD pleyer bilan taqdirlandi. Ma'zur yilimiz ham Boburjon uchun juda omadli keldi. Fransiyaning Parij shahrida o'tgan Aleksandr Glazunov xotirasiga bag'ishlangan tanlova 1-o'rinni qo'lga kiritdi.

Biz yutuqlariga havas qilib uni maqtasak, u esa ustozini maqtashdan charchamaydi. «Qaniydi, Konstantin Nikolayevich Belyakovdek chalolsam...», deb qo'yadi xo'rsinib.

Kichkina bo'la turib, katta-katta muvaffaqiyatlarni qo'lga kiritayotgan Boburjondan umidimiz katta. Shoyad, o'z san'ati bilan yurtimiz dovrug'ini dunyoga yoysa.

AZIZA suhbatlashdi



## «MAQTANCHOQ EKAN DEMANG...»



Yozgi ta'til o'tib bormoqda, ammo men hecham zerikkanim yo'q. Sababi, mening eng sevimli mashg'ulotlarim bor. Masalan, har kuni biror hikoya topib o'qiyman. Yana, musiqa maktabimdan o'rgangan kuylarimni yodga olaman. Sportning karate turida muntazam shug'ullanaman. Uy ishlardida oyijonimga yordam beraman. Bo'sh qoldim degunimcha, maktabda o'tilgan darslarni takrorlab turaman. Sportning karate turi bir necha turga bo'linadi. Karatening «shotakan» turidagi mashg'ulotlarni ancha o'zlashtirib oiganimdan ham xursandman. Murabbiyimiz Murod aka bolalarni yaxshi ko'radilar. Ta'til boshlanay deb turgan mahalda biz yosh Andijon shahriga musobaqaga bordik. U yerda «Nigoh» karate klubining ochiq championatida ishtirot etdik. Ha, bu tengdoshimiz sportchi bo'lar ekan-da, deya o'layapsizmi? Albatta, bunday orzum ham bor. Ammo sport olamida mashhur bo'lish uchun ko'p ter to'kish kerak ekan. Shuning uchun ta'tilda ham mashg'ulotlarga qatnadim. Hozirgi kunda esa ozroq bo'sh vaqtim borligidan foydalanib, hikoyachalar yozishni boshladim. O'h-ho', maqtanchoq ekanmi rosa, deya ko'nglingizdan o'tganini sezib qoldim. Yo'q, yo'q, aslo unday deb o'ylamang, men faqat ta'tilda maroqli dam olayotganimni yozdim, xolos. Sizlar-chi, qanday dam olayapsizlar, ana shular haqida o'z gazetamiz sahifalarida uchrashaylik, do'stlarim.

Behzodbek O'RINBOYEV,  
Farg'onha viloyati, Oltiariq tumani, Hamza shaharchasi

Maroqli dam

## SAMARQANDGA SAYO'HAT



Biz maktabimiz rahbari va ustozlarimiz bilan birlgilikda ko'hna, azim shahar bo'lmish Samarqandga sayohat qildik.

Imom Buxoriy, Amir Temur maqbalarida ziyoratda bo'ldik. Obida shu darajada go'zal qurilganki, devordagi tilladan ishlangan naqshlarini ko'rib, ko'zingiz qamashadi. «Go'r Amir» obidasini ziyorat qilib bo'lgach, Registon maydoniga yo'l oldik. Bu maydonni oynayi jahon orqali tomosha qilib, mening ham borgim kelardi. Nihoyat, orzuimga erishdim. Registon maydoni o'zining kattaligi va tarixiy limizda muhabbat uyg'otdi.

Esdalik uchun juda ko'p narsalar ham oldik. U yerdan iliq taassurotlar bilan yana yo'limizni davom ettirdik va nihoyat sayohatimiz so'ngida «Ulug'bek» rasadxonasiga tashrif buyurdik. Ulug'bek barpo etgan ushbu obidani tomosha qilib, o'tmishga bir lahma qaytgandek bo'ldik. Albatta, Samarqandga borgan kishi mazasi og'zingizda qoladigan nonlardan tatib ko'rmay, hech qayerga ketmaydi. Biz ham uyga qaytayotganda, Samarqand nonlaridan xarid qildik. Samarqanddan olgan taassurotlarimiz bir umrga xotiramizda saqlanib qoladi.

Feruza ALIQULOVA,  
Toshkent viloyati,

Qibray tumanidagi 30-umumta'lim maktabining 9-sinf o'quvchisi

## JURNALIST BO'LMOQCHIMAN

Men O'zbekistondek mustaqil yurda tug'ildim. Hozir 15 yoshdamon. Shu paytga qadar men o'z hayotim, tanlamoqchi bo'lgan kasbim haqida turli xulosalarga keldim. Aslida o'ziga munosib kasbni tanlash har bir odamning vazifasi, burchi. Zero, har kim o'z kelajagini, ertangi kunini rejalashtirishi kerak. Jurnalistika meni ohangrabodek o'ziga tortadi. Aslida, shu kasbga aloqador tanishlarim bor edi. Lekin men yaqin qarindoshim jurnalistika fakultetiga o'qishga kirganidan keyin, shunday qarorga keldim.


Ulardan ko'p narsa o'rgandim, ma'lumot oldim. Katta bo'lganimda, gazeta tahririyatida ishlashni niyat qilganman.

Maqsadimga erishish uchun avvalo, ona tilimizni, milliy adabiyotimizni, qolaversa, chet tilini yaxshi bilishim kerak. Ana shunda men xalq orasida yuzi yorug', to'g'riso'z, o'ziga ishonadigan jurnalist bo'lib yetishaman. Men albatta orzuimga erishaman.

Nurillo NASRIYEV,  
Buxoro viloyati, Shofirkon tumani

## SO'Z O'YINI

Chizma xonalariga «T» harfi bilan boshlanib, «Q» harfi bilan tugallanadigan so'zlarning 10 tasini topib, o'zingizni sinab ko'ring.




## BU AJIB DUNYO

Aziz tengdoshlar! Biz yashab turgan bu olam ajoyibu, g'aroyib voqealarga juda boy. Endilikda Siz sevib mutolaa qiladigan gazetangiz sahifalarida yangi – «Bu ajib dunyo» rukni ochildi.

Bilasizmi, sayyoramizdag'i eng qadimiy hayvonot bog'i qachon tashkil etilgan? Ma'lum bo'lishicha, bunday bog' ilk bor eramizdan avvalgi birinchi asrda Rim imperiyasining hukmdori – Avgust buyrug'i bilan tashkil etilgan. Unda jahoning turli mamlakatlaridan keltirilgan 3500 jonivor yashagan.

Endi esa baliq ovining tarixi haqida to'xtalsak, baliq ovchiligi kecha yo bugun paydo bo'lgan kasb emas, bundan olti ming yil muqaddam ham odamzod qayiqdan foydalangan va baliq tutgan ekan. Sharqiy Gretsiyaning Kastoriya shahri yaqinida grek qadimshunoslari tomonidan topilgan topildiq shundan dalolat beradi. Olimlar uzunligi to'rt metr dan ortiq bo'lgan topilma – qayiqning daraxt tanasidan yasalganini aniqlashdi. Topildiq atrofida suyak va toshdan yasalgan turli ish qurollari baliq ovlash bilan shug'ullanganligidan guvohlik beradi.

Yurtimiz tabiatи xuddi ertaklardagidek mo'jiza-yu sehrlarga boy. Bu ta'rifni shoirlar tilida, baxshilar xonishida kuylanganidek, tabiatи betakror bo'lgan Chotqol tog' tizmalariga ham nisbat qilishimiz mumkin. Bu go'sha go'zalligi-yu maftunkorligini, ayniqsa, yoz oylarida yana-da ko'proq ko'z-ko'zlaydi. Ta'tilni ana shu tog'lar qo'ynida o'tkazayotgan tengdoshlarinig esa bu go'zalliklardan yana-da ko'proq bahramand bo'lmoqdalar. Ular orasida Markaziy «Paxtakor» klubi qoshidagi bolalar futbol akademiyasi tarbiyalanuvchilari ham borlar. Yosh sportehilarning ta'tili qanday o'tayotgani bilan tanishish maqsadida Toshkent viloyati, Bo'stonliq tumanida joylashgan «Konstruktor» oromgohiga yo'l oldik. Manzilga yetib borganimizda, bolajonlar saf-saf bo'lib tushlikka ketishayotgan ekan. Dasturxonadagi bulg'orili do'lma va sho'rvaning xushbo'y hidi har qanday injiq, chimxo'r bolaning ham ishtahasini ochib yuboradi.



– Pazanda oshpazlarimiz oromgohimizda dam olayotgan 415 nafar sportchi bolajonlarimizning og'ziga yoqadigan taomlar tayyorlashga harakat qilishyapti, – deydi oromgoh rahbari Muqaddas To'xtayeva. – Ravshan aka Saidkarimov boshchiligidagi oshpazlarimiz milliy taomlarimizni yana-da mazaliroq chiqishi uchun o'choqlarda pishirishyapti. Shundanmi, oshxonadagi shikoyatlar daftaramiz rahmatnomalar bilan to'lyapti.

O'quv yilining so'nggi kunlari edi. 4-sinfda «Kim bo'lsam ekan?» meni yig'loq etishim. Bizni futbolchilar guruhi, deyishadi. Har kuni murabbiymiz bilan toqqa sayrga chiqamiz. Chotqol dengiz ko'lidagi baliqlarni tomosha qilamiz. Bu yerda o'tadigan «Quvnoq startlar», «Istiqlol va men», «Mening diyorim» kabi tadbir va o'yinlarimiz orasida «Sharq bozori» o'yini menga juda yoqdi. Ubizni tadbirdorlik va tejamkorlikka o'rgatyapti. Uyga borsam, do'stlarimga ham albatta o'rgatib qo'yaman.

– Voy, shundoq a'luchi bola temirchi, taqachi bo'larmish, –kulib yubordi Nosir. – Kulmanglar, – dedi sindf rahbari Dilbar opa. – Nosir buvasining hunarini davom ettirmoqchi ekan, buning nimasi yomon?!

Nabirasining o'qishdan xomush qaytganini ko'rgan buvasi uni yoniga chaqirdi. – Opoqdoda, a'luchi bola temirchi usta bo'lsa, uyat bo'ladimi? – deb so'radi ko'zlar javdirab.

– Sirayam uyat emas, hunar o'rganish – faxr. Chinakam hunarmand halol mehnat qiladi. Odamlar og'irini yengil qiladi. Agar uyat bo'lsa, men shug'ullanarmidim?! Bilasan-ku, asl kasbim jurnalist, televiedeniye ishlayman. Ammo mening bobolarim temirchi usta bo'lishgan, shu yo'l bilan rizqini topib, oila boqishgan. Bobolarim hurmati uchun ham bu hunarni tashlamayman. To'g'ri, hozir aslida bu hunarga uncha zarurat ham yo'qday tuyuladi. Lekin, o'yagin, Qobil bobong moliga o't o'rish uchun o'roq, Sadir tog'ang dalasidagi ekin tagini yumshatishi uchun tesha bo'lmasa, nima qilishardi? Demak, hunarimiz odamlar og'irini yengil qiladi. Senga bir rivoyat aytib beraman, o'tir:

Aytishlaricha, Quddus qasri qurib bitkazilgach, Sulaymon shoh uni qurishda ishtirot etgan barcha ustalarni ziyofatga chorlabdi. Yig'ilgan mehmonlar nozne'matlardan endigina tatib ko'rmoqchi bo'lib turishganda, birdan shoh so'rab qolibdi.

– Xo'sh, aytinlar-chi, bu mo'jizakor qasrnning bosh quruvchisi kim? Uning bunyod bo'lishiga kim ko'proq hissa qo'shan?

G'isht teruvchi o'rnidan turib, bunday debdi:

– Qasrnin bizning qo'llarimiz yaratdi, g'isht ustiga g'isht qalab, uni bunyod qildik. Bu mustahkam devorlar, peshtoq va gumbazlar Sulaymon shohni sharaflab, asrlar bo'yil turajak.

– To'g'ri, qasrnning poydevori tosh-g'ishtdan qurilgan, bu haqda bahs ham bo'lishi mumkin emas, – deya suhabatga aralashibdi duradgor. – Ammo o'zingiz o'ylab ko'ring, terlab ishlaganimizda, qasr shunchalik chiroyli bo'larmidi? Agar biz devorlariga qizil yog'och va Liva kedrlari bilan ishlov bermaganimizda, bu yalang'och devorga qarash sizlarga yoqimli bo'larmidi? Bizning parket esa eng a'lo navli shamshod daraxtidan qilingan, qaragan ko'zni quvontiradi! Biz duradgorlar o'zimizni bu afsonaviy qasrnin haqiqiy bunyodkorlari, deb hisoblaymiz.

6 hektar yerni egal-lagan oromgoh maydonida suv havzasasi, shinam yotoqxonalar, tabiat burchagi, sport maydonchasi, hatto ota-onalar uchun dam olish maydonchasi ham mavjud.

Shu kunlarda bola-

oromgoh bo'ylab sayohat uyuştirdik, har birimiz o'zimizga yoqqan to'garaklarga qatnay boshladik. Hammasi yaxshiku-ya, oyijonimni sog'inib qolayotganim yomon-da. Qaniydi, onalarimiz ham biz bilan birga dam olishsa... Ta'til yana-da ko'proq tatirdi-da.

SARDOR,  
darvozabon

### Oromgohda bir kun

«SHARQ BOZORI» QIZIQARLI O'YIN  
– Men ham 9 yoshdaman. Oromgohga ikkinchi

## TA'TIL QALAY, YOSH FUTBOLCHILAR?

jonlar Ma'naviyat va ma'rifat markazi rahbari Muqaddas Muhammadaliyeva boshchiligidagi oromgohning 40 yoshini hamda mustaqilligimizning 16 yilligini nishonlash uchun qizg'in hozirlik ko'rmoqdalar...

Suhbatga berilib ketib, oromgohning kichikkina suv havzasasi bo'yiga yetib kelganimizni ham sezmay qolibmiz. O'zini katta hamshira Zuhra Xabirova deya tanishtirgan opa quyosh nurida jimirlab turgan suvga ta'rif berib, shunday deydilar:

– Bilasizmi, bu oddiy suv emas, buloq suvidir. U oromgohimizga Chorbog'ning Yangiyo'rg'on qishlog'idagi Mozor soy bulog 'idan oqib keladi.

Shifobaxsh havzada mazza qilib cho'milayotgan bolajonlarni ham suhabatga tortdik:

### TA'TIL KO'PROQ TATIRDI

– Men 9 yoshdaman, oromgohga birinchi kelishim. Ota-onamdan, uyimizdan yiroqda qanday turarkinman, degan hadikda edim. Oromgohimiz direktori Ubaydulla aka Hayitmetov, Muqaddas opa To'xtayeva, tarbiyachi va yetakchilarimizning xushmuomalaliklaridanmi, bu yerga tezda ko'nikdim. O'sha kunning o'zidayoq

marotaba kelishim. Bizni futbolchilar guruhi, deyishadi. Har kuni murabbiymiz bilan toqqa sayrga chiqamiz. Chotqol dengiz ko'lidagi baliqlarni tomosha qilamiz. Bu yerda o'tadigan «Quvnoq startlar», «Istiqlol va men», «Mening diyorim» kabi tadbir va o'yinlarimiz orasida «Sharq bozori» o'yini menga juda yoqdi. Ubizni tadbirdorlik va tejamkorlikka o'rgatyapti. Uyga borsam, do'stlarimga ham albatta o'rgatib qo'yaman.

YUSUF,

o'ng qanot himoyachisi

### «MEN YIG'LOQI EMASMAN...»

O'rtoqlarim meni yig'loqi, deyishyapti. Aslida yig'loqi bola emasman. Lekin nima qilay, oyijonimni juda sog'inib ketyapman-da. Bolalardan berkitib biroz yig'lab olamanda, yana o'ynab ketaveraman. «Yig'loqilardan yaxshi futbolchi chiqmaydi», deya yupatadilar murabbiyimiz Lenur Yeremeyev. Yaxshi futbolchi bo'lish juda qiyin ekan-da...

SHAHZOD,

yarim himoyachi

Ma'mura MADRAHIMOVA yozib oldi

### Kim bo'lsam ekan?

– Binoning zaminiga qaranglar, – deya uning so'zini bo'libdi yer qazuvchi, – agar biz binoning poydevori uchun xandaq qazimaganimizda, mana bu maqtanchoqlar (u g'isht teruvchi va duradgor tomonga bosh silkitib qo'ydi) bu qasrnii tiklay olisharmidi? Birinchi shamoldayoq devoriga qo'shilib bezaklari ham har tomonga sochilib ketardi.

Ammo Sulaymon shoh bekorga dono hisoblanmasdi. U g'isht teruvchini yoniga chaqirib so'rabdi:

– Sening asbobingni kim yasagan?

– Albatta, temirchi-da, – javob qilibdi hayron bo'lgan g'isht teruvchi.

– Senikini-chi? – shoh duradgorga qarabdi.

– Temirchidan boshqa kim bo'lardi? – deb o'ylab ham o'tirmay javob qilibdi duradgor.

– Xo'sh, sening belkulak va cho'kchingni-chi? – yer qazuvchidan qiziqib so'rabdi Sulaymon.

– Bilasiz-ku, podshohim, bularni faqat temirchi yasay oladi, – debdi yer qazuvchi ham.

Shunda Sulaymon shoh o'rnidan turibdi-da, burchakda qimitinibgina turgan kishining oldiga boribdi, u kishi temirchi ekan. Shoh uni saroy o'rtasiga boshlab chiqibdi.

– Ko'rib qo'yinglar, qasrnning bosh quruvchisi mana shu odam bo'ladi, – deya temirchini o'z yoniga, kimxob yostiqqa o'tkazibdi.

– Ana, ko'rdingmi, temirchilik barcha hunarlarning otasi ekan, – debdi buvasi.

– O'rtoqlaringga shuni aytib qo'y. Yaqinda biz bir guruh nemis tadbirdorlari bilan uchrashdik. Ulardan biri juda katta olim ekan. U shunday dedi:

«Agar 6 yoshli bolakay, kelajakda kim bo'lmochisan, degan savolga, kulol, ishchi, chilangar, temirchi yoki to'quvchi bo'laman, deb javob bersa, shu mamlakatning kelajagi bor».

Bu fikrga men ham qo'shilaman. Balki kelajakda sen ham zamonaviy kasblardan birini tanlarsan. Lekin bir yigitga yetmish hunar oz, ota-bobolarimiz hurmati uchun temirchilik bilan ham shug'ullanib tursang, nur ustiga a'lo nur bo'lardi, bolam.

Behzod indamay buvasini bo'ynidan quchdi.

Aytin-chi, bolalar, u o'z fikrida qolarmikin? Siz-chi, kelajakda kim bo'lmochisiz? Tanlagan kasbingiz va u haqda tushunganingizni bizga yozib yuboring.

Muhabbat HAMIDOVA

## SULAYMON SHOHNING SINÖVI



Odatda yozgi ta'til kunlarida o'quvchilardan kelayotgan maktublar soni ancha kamayardi. Bu yil esa xatarning cho'g'i yaxshi. Hatto oromgholarda, tabiat qo'ynida dam olayotgan bolajonlar ham o'z kuzatishlarini qog'ozga tushirib, suratlari chizib yuborishayotgani quvontiradi kishini.

Ularni saralab, sahifa tayyorladik. Shoyad, tabiat haqida kuyunib, suyunib yozgan tengdoshlariniga havas qilib, murg'akkina qalbingizda tabiatga bo'lgan mehr yana-da oshsa.

Sizlardan ham tabiat haqida, mahalliy muammolar haqida maktublar kutub qolamiz.

### Onajonim tabiat

## AHIL CHUMOLILAR

Saraton quyoshi beayov qizdirmoqda. Qilt etgan shabada yo'q. Tirik jon borki, o'zini salqina oladi.

Mitti chumoligina tinchimaydi. U o'z tanasidan ancha katta donni kesak va xor-xaslar orasidan goh sudrab, goh surib, suvsiz ariq qirg'og'iga olib chiqdi. Ariq chuqur, qirg'oglari til edi. U duch kelib qolgan bu to'siqqa bir muddat qarab turdi-da, najot izlab, atrofqa yugurdi. Ko'makechi topolmagach, narigi qirg'oqqa tez o'tdi va donni ariq ichiga dumalatdi. Lekin donni u yerdan olib chiqishning o'zi bo'lmadi. Harchand tirishmasin, doni orqaga sirpanib tushib ketaverdi.

Shu payt ikkinchi chumoli ham don sudrab ariqqa keldi va dumalatib yubordi. Birinchi chumoli uning yoniga yugurib bordi va xuddi odamlardek «achomlashdilar». Bir zum maslahatlashgandek, oldindi oyoqlarini qimirlatishdi. Avval birinchi chumolining donini, keyin esa ikkinchisini kini birgalikda ariqdan olib chiqishdi va uyalari tomon sudrab ketishdi.

N.MAMADALIYEV,  
Namangan viloyati, Uychi tumanidagi 7-maktab

Toshkent shahrining Chilonzor tumanida yashovchi tengdoshingiz Hilola RO'ZIYEVA yuborgan ushbu surat Uchquduq va Zarafshon shaharlari yaqidagi Davqiztav qo'rg'onida tasvirga tushirilgan.

Katta-katta echkiemarlar say qilib yurgan bu qo'rg'on tarixi haqida gazetamizning keyingi sonlarida o'qisiz.

### MOMOJONIM TABIAT

Onajonim tabiat.  
Momojonim tabiat.  
Tanaidagi og'reqli,  
Yarajonim tabiat.

Suyub-suyub ulg'aytgan,  
Erka o'sgan bolangman.  
Ardoqlagan ko'ksingga,  
Oyoq bosgan bolangman.


Qulqut tutib dardingni,  
Tinglamagan bolangman.  
Mehr ko'rib, mehr-la,  
Siylamagan bolangman.  
  
Bobom ekkan daraxta,  
Bolta urgan men o'zim.  
Momom ekkan gijummi,  
Qurtga bergen men o'zim.

Yaxshi narsang barini,  
Yulib-yulib oldim men.  
Bag'ringda o'zim tanho,  
Hokim bo'lib qoldim men.

Havolar og'irlashdi,  
Yomon bo'ldi, ko'p yomon.  
Keksayib bo'lding dardmand,  
Endi izlayin darmon.

O'zi pishirgan oshdan,  
Xasta bo'lgan men - INSON!  
  
Jonajonim tabiat,  
Momojonim tabiat.  
Dardingga bo'lay darmon,  
Onajonim tabiat!

Gulruhsor OLLOBERGANNOVA



Sehringdan o'rgilay, ona tabiat,  
Kechagina bulut to'kardi ko'z yosh.  
Bugun esa nurga cho'lg'angan borliq,  
Saxiy nurin sochar samodan quyosh.

Dilnavoz SAIDOVA,  
Jizzax viloyati, Zomin tumanidagi  
1-maktabning 8-sinf o'quvchisi

## TABIAT SHAYDOSIMAN

Men bolaligidanoq tabiat shaydosiman. Uning Hozirgi kunda O'zbekiston Milliy universitetining jurnalistikago zalliklari, ne'matlardan hayratlanaman. Ona tabiat fakultetida tahlis olyapman. Shunday bo'lsa-da, bolalikdagibag'rida o'sgan har bir o'simlik, har giyohning foydali qadrondim «Tong yuldusi»ni qo'limdan qo'yamayan. Ayniqsa, ekanligini ham yaxshi bilaman. Shunday ekan, bizga mehr «Onajonim tabiat» sahifasi menga juda yoqadi.

Foydali o'simliklar haqida eshitgan, bilganlarimni uka va ardoqlashimiz, kelajak avlodlarga sog'lomligicha yetkazi-

singillarim bil', o'rtoqlas, zoqchiman.

Diyorah HASANOVA

## AOE GULINING XUSUSIYATLARI

Ko'pchiligimiz uyimizda xonaki gullar, o'simliklar parvarish qilamiz. Ularning parvarishi bir-biridan farq qiladi. Ba'zilari suvsevar bo'lsa, boshqalari, aksincha, quruqlikni yoqtirishadi. Yana shunday o'simliklar ham borki, ular juda foydali va dorivor hisoblanadi. Aloe o'simligi shular sirasiga kiradi. Deraza tokchalaridagi gultuvaklarda yaxshi o'sadigan bu o'simlikning daraxtsimon turi ko'proq o'stilrildi. Yaxhilab parvarish qilinsa, buta shaklida o'sib, barglar yozadi. Xona sharoitida kamdan-kam gullaydi. U me'yorida sug'orishni va har yili ko'chirib o'tkazishni talab etadigan o'simlik. Un endan o'sib chiqqan navydalaridan ko'paytilradi. Barglari ko'pgina kasalliklarni davolashda ishlatalidi. Yangi shirasiga esa kuygan yaralarga davo.

## LAVLAGINING FOYASI

Biz aksariyat savzavotlarda inson salomatligi uchun zarur bo'lgan moddalar borgilini yaxshi bilamiz. Ko'pchilik bolalar sergo'sht, seryog' taomlarni yoqtirishadi. Lekin bunday taomlarni quruq o'zini yeyish zararli. Ularni oshko'klar, sabzavotlardan tayyorlangan salatlar bilan qo'shib yeyish tavsija qilinadi. Ayniqsa, qizil lavlagidan tayyorlanadigan salatlar juda foydali.

Lavlagi deyarli hamma yerda o'stilrildi. Biz odatta uning ildiz mevasini iste'mol qilamiz. Lekin ba'zi taomlarga uning bargi ham ishlatalar ekan. Chunki bargida ham ko'plab darmondorilar, foydali moddalar bor ekan. Lavlagidan turli garnirlar, salatlar, souslar va boshqalar tayyorlashda qovurib, qaynatilib foydalaniлади.



## YOVVOYI OSHKO'KLARNING NAFI

Biz deyarli barcha taomlarga oshko'klar solib yeyishga odatlanganmiz. Ko'katlardan, hatto yovvoyi oshko'klarning o'zidan ham talaygina taomlar tayyorlasa bo'larkan. Buning uchun yangi unib chiqqan ko'katlar yaxhilab yuvilib, qiyimalanadi. Unga piyoz, jizza va tuxum qo'shib, yog'da qovuriladi. Ulardan ko'k somsa, biyron, chuchvara, Patir kabi taomlar tayyorlash mungkin.

Tibbiyotda yovvoyi oshko'klardan qon bosimi, semirish va boshqa ko'plab kasalliklarni davolashda foy'dalaniladi. Uchun tarkibida turli darmondorilar, ovqatlarni xushxo'r qiluvchi, yengil hazim qildiruvchi moddalar bor.



## MEN TARVUZOY BO'LAMAN

Salom bolajonlar! Men Tarvuzyoman! Saxiy Quyosh tafti, momo yer saxovati, bobodehqon mehridan yaralganman. Ona tabiatning mo'jizasi, yashillikka burkangan polizlarning ko'rkiman. Yesangiz, tilimim tilingizni yordi. So'zlarimga shubha qilsangiz, rasmimni chizib, tahririyatga yuborgan Parkent tumanining Shampan qishlog'i dagi 18-o'rta maktabning 8-sinf o'quvchisi musavvir qiz Fotima Minadirovadan so'rang.

Yoki Jizzax shahrida joylashgan H.Olimjon nomli 21-o'rta maktabning 8-sinf o'quvchisi Go'zal Sag'dullayeva chizgan rasmdagi tarvuzxo'rlik qilayotgan mana bu bolajonlardan so'rang.



## LIMONZORIMIZGA BIR KELING...

Biz jannatmakon Bo'stonliq tumanining Soylig qishlog'i da yashaymiz. Bag'rida yayrab tahsil olayotgan 11-maktabimiz ham tumanning eng so'lim, xushmanzara yerida joylashgan. Uning ko'rkiga ko'rk qo'shish maqsadida bilim maskanimiz hovlisi, bog'iga chiroyli gullari, mevali va manzarali daraxtlar ekmak. Hatto kattagina issiqxonamiz ham bor. U yerdag'i o'simliklarni ustozimiz Elchi Mirahmedov boshchiligidan parvarishlaysiz. Avvallari u sinf xonalari hamda maktab hovlisini ko'kalanzorlashtirish uchungina xizmat qilgan bo'lsa, hozirda kattagina limonariya ham barpo etganmiz. Hozirda yiliga 150-200 kilogramm limon olinib, hosilning oldini nafaqadagi ustozlarimizga sovg'a qilamiz. Qolgan qismi sotilib, puli kam ta'minlanganlarga hamda maktab etchiyojariga sarlanadi.

Bu mehnatlarimiz bilan ona tabiat himoyasiga oz bo'lsa-da, ulush qo'shayotganimizdan xursandmiz.

Fursat topsangiz, limonzorimizga bir keling, mehmon qilamiz.

Umida MURODOVA

### Bilasizmi?


Akulalar bundan 350 million yil avval paydo bo'lgan ekan.

Fanga'noma'lum sababga ko'ra, o'rdakning tovushi hech qachon aks-sado bermaydi.

Jonzotlarning 80 foizini hasharotlar tashkil qilar ekan.



Qo'y, echkilarni  
ham rasmga  
olyapsizmi?



Navoiy viloyati, Zarafshon tumanidagi  
13-maktabning 6-sinf o'quvchisi Nodirbek  
NIZOMOV ushbu rasmga orqali teng-  
doshlarini ona tabiatni asrashga cha-  
qiribdi.

## "OROLLAR" BOSHQOTIRMASI


Ushbu kataklarga harflarni to'g'ri joylash-

tirsangiz, sayyoramizdag'i 7 ta orolling nomini bilib olasiz.

- 1. O'R
- 2. R
- 3. O
- 4. L
- 5. K
- 6. A
- 7. R

Tuzuvchi: Nodirbek YO'LDOSHEV,  
Jizzax viloyati, Zomin tumanidagi 36-  
maktabning geografiya fani o'qituvchisi

1	O
2	R
3	O
4	L
5	K
6	A
7	R



Biz ba'zan bolalarni kitob o'qimaslikda ayblaymiz. Lekin ularni bitta shu kitob o'qishga qiziqtira olmayotganimiz uchun o'zingizni hech aybdor sezganmisiz? Yoningizga loaqal ikkita bolangizni o'tkazib olib, kitob o'qib bergenmisiz? Yaxshi hamki maktabdagagi tadbirlar, turli yozuvchi-shoirlar bilan uchrashuvlar bor. Ular farzandlarimizni maktabdagagi uchrashuvlar orqali ma'naviy yetulklikka yetaklaydilar. Respublikamizning deyarli barcha viloyatlaridagi ba'zi maktablarda bo'lib, o'quvchilarining «shoir aka»siga aylangan ana shunday ijodkorlarimizdan biri Shukur Qurbondir.

**Uchrashuv**

Shukur aka bilan suhbatlashganimizda, maktablardan birida bo'lgan qiziqrarli uchrashuv haqida so'zlab berdilar...

# SHOIR AKA, BIZNING MAKTABGA KELING!

— Bir uchrashuvda bolalar bilan xayrlashay deb tursam, yomg'ir yog'ib yubordi. So'ng, suhbatni yana biroz davom ettirdik. Ularning she'riyatga ixlosi balandligidan nima deyishdi deng: «Yomg'ir tinmasin, shoir akamiz ketmasinlar. Biz ham yozgan she'rlerimizdan o'qib beraylik», deb chug'urlashishdi. Bolalarning ra'yini qaytarib bo'larmidi, o'tirib eshitdim. Tuzukkina she'r yozadigan o'quvchilar ham bor ekan. Shu payt o'ylab qoldim: ular adabiyotga, ma'naviyatimizga bee'tibor emaslar, biz kattalar ba'zan

biz bolalar yozuvchi shoirlari hech ham ularni unutib qo'ymasligimiz kerak. Biz hamisha birinchi navbatda bolasini o'ylab yashaydigan millatmiz. O'zim ham shu bolalarni o'ylab yashashga harakat qilayapman.

Bugungi kunda Shukur akaning o'z shogirdlari bor. Va shoir shogirdlarining she'rlerini o'zinikiday qadrlaydi. Ulardan ba'zilarini sizga ham havola qilmoqchimiz.

Sayyora JO'RAYEVA

Murod ABDULLAYEV

Suv keladi mo'ridan,  
Yor-yor, yoron-ey!  
Mo'ridan ham naridan,  
Yor-yor, yoron-ey!  
Akaginang aylansin,  
Yor-yor, yoron-ey!  
Sochlaringni toridan,  
Yor-yor, yoron-ey!

Qo'yosh chiqdi falakka,  
Yor-yor, yoron-ey!  
Olov tushar yurakka,  
Yor-yor, yoron-ey!  
Akaginang uylandi,  
Yor-yor, yoron-ey!  
Chiroli kelinchakka,  
Yor-yor, yoron-ey!

Oqqushning to'shi qorday,  
Yor-yor, yoron-ey!  
Olma-anori borday,  
Yor-yor, yoron-ey!  
Oy kecha, oydin kecha,  
Yor-yor, yoron-ey!  
O'g'il bersin qo'chqorday,  
Yor-yor, yoron-ey!  
Yor-yor, yoron-ey!

Kelinning oldiga tushib kelayotgan qiz-juvonlar-u momolarning lapari ularnikidan ham oshib tushardi...

Nihoyat, gulxan oldida kelin mingashib olgan tulpor kelib to'xtashi bilan hamma bir zum tin olib qoldi. Marosimning eng go'zal daqiqalari yetib kelgandi. Kuyovlarning bashang liboslariga burkangan alp qomat

ularga befarq bo'lamiz. Viloyatlardagi maktablarga ko'proq borsak, o'quvchilarga nur-ziyo ulashsak, deyman. Axir biz shular uchun, kelajagimiz barkamol insonlar qo'lida bo'lishi uchun ijod qilamiz.

Men so'nggi paytlarda qo'liga umuman kitob olmay qo'ygan ba'zi bolalarni eslab: «Balki siz aytayotgan bolalar ham ko'pdir, lekin bugun yoshlar ko'proq radio eshitishga, televizor yoki kompyuterga ishqibozroqlarda», desam o'z o'quvchilarini jordan suygan Shukur aka mening fikrimga unchalik qo'shilmay, yana bir voqeani so'zlab berdilar...

— Yaqinda bosilib chiqqan kitobimni o'quvchilarga taqdim etdim. Ular kitobimni yaxshi qabul qilishdi. Ba'zilariga yetmay ham qolgan ekan, uchrashuv tugagach, «Menga ham kitob topib bering», deb ancha yo'lgacha 3-4 bolalar ketimdan ergashishdi. Kelasi safar sizlarga alohida olib kelaman, hozir darsdan qolmanglar, desam yana chug'urlashishdi. Jarima sifatida ularga yana bir-ikkita she'rimdan aytib berdim, axiyri bolajonlar bilan xayrlashidik. Kitob ololmaganlari eng yoqtirgan she'rlerini yozib olishdi. Bilasizmi, shunday o'quvchilar ko'paysin, deb yuribmanda maktablarda. Fursatdan foydalanib aytmoqchi bo'lganim,

**XAYOLPARAST**

Hayot IKROMOV

G'ani o'ltirar edi xayollar surib, Xayolin tez-tez har yoqqa burib. Ko'rdi u bir mahal kattakon dengiz, Tushib ketdi G'ani dengizga shu kez. «Voy, dod!» deb baqirdi, lekin qarasa, Dengilda emas, u o'tirar darsda... Xayolida emas olgan bahosi, lekin, Darsda unga ustoz qo'yibdi «ikki».

**MUSICHALAR**

Shahnoza ANVAROVA,  
Toshkent viloyati,  
Piskent tumanidagi  
5-o'rta maktab  
o'quvchilari

Bizning hovlida bir justf  
Musicha yashar edi.  
Topgan-tutgan donlarin  
Ikkiga bo'lib yerdi.  
Nafs-shayton bir kuni  
Buzdi ular orasin.  
Yaxshi ko'rmay qo'yishdi  
Bir-birining bolasin.  
Dahanaki jang qildi  
Bir kun ular maydonda,  
Xudoga yoqmagan ish –  
Urush-janjal yomon-da!  
Poylab yurgan ekanmi,  
O'g'ri mushuk chang soldi.  
Chiroli musicalar,  
Qarangki, dumsiz goldi.

## TO'MARIS ONA



(Esse)

Siparangiz onasi va qarindoshlari tomon egilib ta'zim qildi-da, Zarina mingashgan arg'umoq yoniga o'ktam qadam tashlab bordi. Avval Zarinaning qo'llarini ushladi, bu uning «Yaxshi yetib keldingmi, yorim! Endi izmingni menga ber», degani, minnadorchiligi edi. So'ng, kelinni xuddi go'dak bola singari ot ustidan adl ko'tarib olib, yonib turgan gulxan atrofidan uch marta aylantirdi. Shodon qiyqirqlar, yor-yorlar, doiraning taka-tum sadolari ostida kuyov o'z Zarinasini shohi pardalar bilan ziynatlangan o'toviga olib kirib ketdi.

Gulxan atrofida esa o'smir yigitlar, qiz-juvonlar hamda qiziqchi navkar larning o'yin-kulgulari yarim tunga qadar davom etdi. O'tovlar oldidagi ochiq maydonlarda kelin-kuyov sha'niga tilaklar-u qutlovlardaytilar, ziyofer qizigandan qizir edi...

Ertanisiga turli yoqlardan kelgan mehmonlar manzillariga jo'nab ketishayotgan mahal, «kelin salom» boshlandi. Zarina eng avval qabilalari malikasi, massagetlar u shaklar makon tutgan Turon zamin hukmdori To'maris onaga uch bora egilib, salom berdi.

— Boshing toshdan bo'lsin, ona qizim. Sen endi ham kelinim, ham qizimsan. Ham... — shu chog' uning ovozi titrab ketdi, — ham navkarimsan! Ajodolarimiz makonini ko'z qoracho'g'idek asraguvchi najotkorlarimizdan

birisan. Bobolarimiz ruhi senga yor bo'lsin, — dedi va oltin taqinchog'-u ziynatlarga qo'shib, oltin sopli xanjar, sopi uzun, uch qismi kalta o'qli yoy ham hadya etdi. Bu ham massagetlar udumi edi: Illo erkag-u ayol Vatanni yovdan birdeklar himoya qilishga burchli sanalardi.

\* \* \*  
...To'y o'tganiga ham mana bir oycha bo'ldi. To'maris ona yana O'kuz bo'yida og'ir xayollarga botib o'tiribdi. Kir qo'shinlari daryoning u betiga uzzu kun xufiyalarini yuborib, kechuvga mos joy axtarmoqda. Demak, savash bo'lishi muqarrar...

Hukmdorning nafrati oshgandan oshib, xayoli tadbir o'ylash bilan band. Dushmani mahv etmoq uchun qay usulni qo'llamoq kerak? U bilan qaysi joyda jang qilgan ma'qul: ochiq yalanglikdami yoki tog'lar orasidagi qulay manzillarda? Qanday qilsa, dushman u xohlagan joyda yuzma-yuz bo'ladi? Qanday qilsa, yovni yengib, kulini ko'kka sovurish mumkin? O'ylagan sayin o'yining adog'iga yetolmas, ko'rayotgan tadbirlari Kirning mo'r-malaxday bostirib keladigan lashkari oldida unchalik puxta ko'rinas edi.

Shu tobda uning dashmandan ustun keladigan birgina jihatli bor edi: u ham bo'lsa, To'maris ona lashkarlari o'z kindik qoni tomgan Turonzamin uchun, uni yov qo'liga omonsiz bermaslik uchun tomchi qoni qolguncha kurashadi. Dushmanning zaif tomoni esa — uning bosqinchiligidagi edi. U o'zgalar zaminiga egalik qilib, elini bandi qilish, boyliklarini talash, xullas, turonzaminliklarni esa o'ziga tobe etish uchun kelayotgan edi.

**Boshi o'tgan sonlarda.  
Davomi bor.**

# DUNYONI MEHRGA TO'LDIRAMIZ

*Bo'stonliq tumanida joylashgan Xumsonga bir borsangiz, qishloqning so'lim tabiatini, osmono'par tog'lari, zilol suvlari sizni qayta qayta quchog'iga chorlayveradi.*

Xumson tog'cho'qqisidagi «G'uncha» bolalarni sog'iomlashtirish oromgohi ham ana shu so'lim

– Bu mavsumda oromgohimizda 155 nafar bola dam olmoqda. Tarbiyachilarimiz har kuni turli tadbirlar o'tkazishga bosh-qosh bo'ladilar. Raqs, tasviriy san'at, munchoq bilan bezatish, sport to'garaklari 100 dan oshiq bolalarni o'ziga jalb etgan. Kutubxonachimiz har bir dam oluvchiga qiziqishiga ko'ra kitob va jurnallar tanlab beradi.

## QORAQALPOQ BOLALARI QURSHOVIDA

Oromgoh sari ichkarilab borarkanmiz, qoraqalpog'istonlik bolalar qurshovida qoldik.

– Bugun do'starimiz bilan xayrlashamiz, – deydi Chimboy tumanidagi 38-maktabning 6-sinf o'quvchisi Mamanbay Boynazarov. – Hozir katta gulxan yoqamiz.

– 15 kun davomida sport, raqs to'garaklariga qatnashdik. Suv havzalarida cho'milib, chiniqib ham oldik, – deya suhbatni davom ettirdi To'rko'l tumanidagi 63-litsey o'quvchisi Umidbek Iskandarov.

Gulchehra Jumanazarova 7-guruh tarbiyachisi ekan.

– O'zim o'qituvchiman, Nukus shahridagi 17-maktabda ingliz tilidan saboq beraman. Oromgohga tarbiyachi bo'lib kelganimdan xursandman. Davramizga boshqa dam oluvchilar ham kelib qo'shilishdi.

maskanda joylashgan.

Tog'ning tikka yo'li bo'ylab oromgohga kirib borganimizda, kun ancha kech bo'lib qolgandi. Oromgoh rahbar o'rinnbosari Yulya Umidova bizni qarshi olib, quyidagilarni gapirib berdi:

Ta'til taassurotlari

## MOSKVALIK MEHMON

Nurmuhammad Sultonov Moskva shahri, Sushyovskiy tumanidagi 237-maktabning 7-sinf o'quvchisi ekan.

– O'zbekistonning havosi toza. Shuning uchun ham dam olgani «G'uncha» oromgohiga keldim, – deydi u. – Bu yerda sirdaryolik, qoraqalpog'istonlik bolalar bilan do'stlashdim. Iloji bo'lsa, har yili yozgi ta'tilda O'zbekistonga kelaman.

U gapini tugatmasdan «Barcha guruhlar yig'ilsin» degan buyruq eshitildi. Davraga Shoh va go'zal Shahrizoda tashrif buyurishdi.


## SHAHRIZODANING ERTAKLARI

– Shohim, qarang, bu yerda yig'ilgan bolalar bir-birlari bilan qadrondan do'st bo'lib olishibdi. Sehrli 15 kun ularni shunday bog'lab qo'yibdi-ki, endi xayrlashgilari



Gulyuz BAHODIR qizi

Fanga sayohat



Toshkent viloyatining Parkent tumaniga qarashli baland-past adirlarning birida joylashgan bahaybat qabariq oynalar quyoshga ko'ksini ochgan. Bolalar uning yoniga borishgach, qo'llarini peshonalariga qo'yib, bo'yinlarini cho'zib, qurilmani qiziqish va hayrat bilan kuzata boshladilar.

– Bu nima, bilasizlarmi, bolalar? – so'radi muallima.

– Buni televizorda ko'rganman! – dedi o'quvchi-jardan biri.

– Bu quyosh batareyalari, – tushuntirdi o'qituvchi. – «Quyosh» ilmiy ishlab chiqarish majmuasiga qarashli ushbu qurilmani yaratishda xalqimizning atoqli olimlaridan biri, akademik Sodiq

Azimov rahbarlik qilgan. Men sizlarga shu inson haqida gapirib beraman, –muallima shunday deb sumkasidan rasm olib, o'quvchilarga ko'rsatdi. –Sodiq Azimov shu kishi bo'ladilar. Ular kosmik nurlar to'g'risida ilmiy izlanishlar olib borganlar. Bolalar, kosmik nurlar nima degani? Biz yashab turgan zaminga quyosh va oy nurlarining behad katta ta'siri bor. Siz bu to'g'rida kelajakda fizika fani orqali xabardor bo'lasiz. Yozda quyosh tik ko'tarilgan sayin kunlar isib, issiq bizga ta'sir eta boshlaydi. Ko'chaga chiqayotganimizda, ota-onalarimiz: «Boshingga bir narsa kiyib ol, issiq urmasin», deya takror-takror tayinlashadi. Bu behuda gaplar emas. Yuqorida kelayotgan nurlar insonga foydasi bilan birga ziyoni ham bor. Biz ularni kosmik nurlar deb ataymiz. Bu nurlar haqidagi dastlabki fikrlarni Avstriya olimi V.Gess bildirgan edi. So'ngra, 1932-yili amerikalik olim K.D.Anderson, 1936-yili ingliz olimi S.F.Paueller ham shu masala bilan atroficha shug'ullangan edilar. 50-yillarda yurdoshimiz Sodiq Azimov ham bu borada qator tajribalar olib borib, kosmik nurlar borasidagi o'zini kashfiyotlarini e'lon qildi. Bu dunyo fani uchun o'ziga xos ilmiy yangiliklar edi. Xususan, yurdoshimizning

kelmayapti. Hozir sizga so'zlaydigan ertagim aynan shu bolalar haqida. Eshitishga tayyormisiz?

Shunday deya, Shahrizoda shohga dam oluvchilar 15 kun davomida nimalar bilan mashg'ul bo'lganlarini ertak tarzida so'zlab berdi. Bolajonlar raqsga tushdilar, uch tilda qo'shiq aytdilar.

## XAYRLASHUV GULXANI

So'ngra, katta gulxan yoqildi. Atrof qop-qorong'i. Lovullab yonayotgan gulxan atrofi charog'on. Uning shu'lasida bolajonlarning chehralari yana-da yorqinroq ko'rinadi. Kechki soat 22.00. Oromgohdan uzoqlashayapmiz-u, u yerdagi jo'shqin, iliq, hayajonli kayfiyat qalblarimizni hamon tark etgani yo'q.

Qulog'imizga uzoqdan elas-elas bolalarning ovozlari eshitildi:

*O'ynab-kulib yashaymiz,  
Yoshlik davrin suramiz.  
O'ynab-kulib dunyoni,  
Mehrga to'ldiramiz.*

sa'y-harakatlari bilan kosmik nurlar tarkibida boshqa foydali nurlar, zarralar ham borligi aniqlandiki, ular koinotni o'rganishda, kosmik kemalarning fazoga parvoz qilishida, shuningdek, orbitada fazogirlarning unumli mehnat qilishlarida juda katta samara beradi. Bugungi kunda kosmik nurlar yordamida yerning qalin qatlagini aniqlash, turli xil konlarni topish, ulkan inshootlarni o'rganishda keng foydalanib kelimoqda. Hali biz bilmagan sirlar ko'p. Sizlar chuqur bilim olib olim bo'lsangizlar, juda ko'p tilsimlarning eshigin ochishga muvaffaq bo'lasiz. Demak, o'qishimiz kerak ekan-a??


– Yaxshi o'qiyimiz! – deyishdi bolalar chug'urlashib.

– Sodiq Azimov umrining oxirigacha shu yerda mehnat qildi, – deb gapini davom ettirdi muallima. – U O'zbekistonda yuqori energiyalar fizikasiga asos soldi, elektron-yadro jalalarining kashf qilinishiga hissa qo'shdii.

– Men ham katta bo'lsam, shu yerda ishlayman! – dedi bolalardan biri.

– Barakalla! – dedi muallima xursand bo'lib. – Qayerdan ko'p olim chiqsa, o'sha yurtning, xalqining shavkatni baland bo'ladi.

«Quyosh» ilmiy majmuasidan chiqayotgan bolalardan biri qo'lini peshonasiga qo'yib samoga tikildi. Kim biladi deysiz, balki shu tengdoshingiz kelajakda o'zga sayyoralarini kashf etishi ham mumkim. Havas insonni baxt-saodatga yetaklaydi, degan gaplar behuda aytilmagan, axir!



## HAM HUNAR, HAM DAROMAD


Har tong Abdullo do'stleri Rixsivoy va Jamshidbek bilan ishbilarmon Jo'ravoy akaning korxonasiga oshiqishadi. Taxta isi usfurb turadigan bu korxona har yili yozgi ta'tilda o'quvchilar bilan gavjum bo'ladi. Dastlab oddiy taxtaning uy-ro'zgor anjomlari-yu yumshoq mebellarga aylanishini hayrat bilan tomosha, qilgan bolajonlarning qo'llari ham ancha kelishib qoldi. Taxtakach, o'qlov kabi ahjomlarni bemalol yasashyapti.



Korxona rahbari Jo'ravoy aka juda sinchkov odam-da, o'ziyam. Shogirdlarini zimdan kuzatadi. Ana, yuragida o'ti bor Abdullo randalangan taxtani ehtiyyotkorlik bilan bir chetga olib qo'ysi. Rixsivoy esa betartib bo'lib yotgan mixlarni taxlayapti. Bu ikki do'st shu darajada ishga berilib ketish-

ganki, ustozlarining qarab turganini ham payqashmayapti. Yaqinginada mayda anjomlar yasab yurgan bu ziyrak bolalar katta shkaf yasashga ham o'z hissalarini qo'shishdi. Ishlab topgan pullarini esa oyijonlariga keltirib berishdi. Muqaddas opa o'g'li Rixsivoyning birinchi maoshini olib, uzoq duo qildilar-da, bu pullaringga muktab bozorini qilgin, dedilar. Shodlanmay bo'ladimi, o'gli ko'cha changitib yurmay, hozirdanoq bir hunarning boshini tutyapti-ku, axir.

Nargiza ABDULLAYEVA



Leon BRIEDIS,  
Latish shoiri  
Frantishek GRUBIN,  
chex shoiri

Nikanyu va Mikanyu

Olma ekishdi.

Kun o'tmay mevasiga

Ko'zin tikishdi.

Uchinchi kun deganda

Ko'rindi hosil.

Mushtdekkina bir nima,

Bir nima – sarxil!

Shaftoli, yo'q, o'rik deb,

Tortishdi ancha.

Qarasalar yaxshiroq,

Ekan chumchuqcha!

### OYMOMA

-Oymomajon, kumush oymoma,  
Ayt, nimaga xomushsan va jim?

-Huv qorong'i o'rmon qa'riga,  
Tushib ketdi kecha yulduzim.

-Oymomajon, xafa bo'lma, qo'y,  
Ozor chekma o'ylanib-horib.

Yulduzingni topib beraman,  
Ertan tongda o'rmonga borib.

Abdurahmon  
AKBAR tarjimasi

## BIZ KATTALAR Ning VAZIFASI

Viloyatimizda 539 ta muktab bo'lsa, ularning deyarli barchasida ko'plab iqtidorli o'quvchilar tahlil olishadi. Men esa ana shunday umidli yoshlarni bilan ish olib boraman. Xiva tumanidagi 16-maktabning 8-sinf o'quvchisi Matluba Egamberanova ana shunday shogirdlarimizdan biri.

Maktabda a'lo baholarga o'qiydigan, insholar tanlovlardida g'oliblikni qo'ldan bermaydigan bu qizimizning she'rlarini bir eshitisangiz, Urgench shahridagi 47-maktabning 9-sinf o'quvchisi Laylo Rahimova chizgan miniatyura asarlarini bir ko'rsangiz edi. Xiva tumanidagi 57-ixtisoslashgan muktab o'quvchisi Shohista Sapayeva esa biologiya sohasi bo'yicha ilmiy izlanishlar olib boryapti. Cho'l zonasida o'sayotgan shifobaxsh o'simliklar, gullar, qushlarning oilalarini o'rganyapti. Urgench tumanidagi 38-maktabning 8-sinf o'quvchisi Nilufar Matkarimova, 36-maktab o'quvchisi Dilrabo Matkarimova ham adabiyotga, she'riyatga mehr qo'ygan yaxshigina ijodkor qizlarimizdan. Ularning ham Zulfiyaxonim qizlari safidan munosib o'rin olishlariga umid qilamiz.

Viloyatimizdagagi har bir muktab qoshida yozgi iste'dod muktablari ochilgan bo'lib, o'quvchilar o'z qiziqishlariga ko'ra zardo'zlik, duradgorlik, yog'och o'ymakorligi kabi to'garaklarda shug'ullanishyapti. Xiva shahridagi «Ichonqal'a» qo'riqxonasida «ustoz-shogird» an'anasiga ko'ra ko'plab to'garaklar faoliyat yurityapti. U yerda-gi mohir ustalarga shogird tushgan o'g'il-qizlar unutilib ketayotgan misgarlik, kandakorlik, yog'och o'ymakorligi, kulolchilik kabi hunarlarning hadisini olishyapti.



Mahalladagi bolalar ham e'tiborimizdan chetga qolayotgani yo'q. Urgench shahridagi 16-son «Yangiobod» mahallasida «Yosh hamshiralar» to'garagi ochilgan. Shahlo Xo'jayeva boshqarayotgan to'garak a'zolari mahalladagi nogironlar, yordamga muhtoj qariyalarning uylariga borib, uqalash muolajalarini o'tkazishyapti, shifobaxsh giyohlardan sharbat tayyorlab berib, duolarini olishyapti. Ota-onalar bilan birinchi tibbiy yordam ko'rsatish mashg'ulotlarini o'tishyapti.

Viloyatimizda mohir sportchilarimiz ham talaygina, Javlon Otajonov Turkiyada, Liverpulda o'tgan boks bo'yicha jahon championatida qatnashib, faxrli o'rillardan birini olib keldi. Qani endi o'zingiz ayting-chi, bu alp qomat yigitlarimiz-u chevar, lobar qizlarimizning parilardan qayerlari kam?..

Ijodkorning qalbini ijodkor yaxshi tushunadi, degan gapda jon bor. Zuhra opaning o'zlarini ham yaxshigina qalamash bo'limaganlarida, shogirdlari haqida bunchalar to'iqinlanib, hayajonlanib, quvonib so'zlamagan bo'lardilar. Zero, zar qadrini zargar biladi, deb bejizga aytilmagan.

Feruza JALILOVA suhbatlashdi

Quyida opaning shogirdlari ijodidan namunalar o'qisiz. Gazetamizning keyin-gi sonlaridan birida esa Zuhra opaning ijodi bilan ham tanishasiz.

### SOAT

Chiq-chiq etib tolmaydi,  
Uzoqqa ketolmaydi.  
Goh qarasam u yodqa,  
Goh qarasam bu yodqa.  
Soatim shunday do'stlar,  
Faqat foydani ko'zlar.

Dala-dashti qoplaydi tuman,  
Tushib kelar asta qorong'u.  
Barcha uxbab yotgan pallada,  
Ko'zlarimdan qochadi uyu.  
Nimanidir izlar ko'zlarim,  
Birdan o'ychan bo'lib qolaman.  
Qalamimni qo'limga olib,  
Sokin tundan ilhom olaman.

Matluba  
EGAMBERGANOVA

## Tong YULDUZI

BOSH MUHARRIR:  
To'lqin HAYITOV

**Muassislar:**  
O'zbekiston matbuot va axborot agentligi,  
O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi,  
«KAMOLOT» Yoshlar ijtimoiy harakati,  
«SOG'LOM AVLOD UCHUN» hukumatga  
qarashli bo'limagan xalqaro xayriya jamg'armasi

Dizayner va  
sahifalovchi:  
Fazliddin  
SHOYODGOROV  
Navbatchi:  
Ma'mura  
MADRAHIMOVA

Gazeta  
O'zbekiston  
matbuot va  
axborot  
agentligida  
0208-raqam  
bilan 2007-yil  
2-fevralda  
ro'yxatdan  
o'tgan.

TAHRIR HAY'ATI:  
Turobjon JO'RAYEV,  
Dilbar ALIMJONOVA,  
Qahramon QURANBOYEV,  
Jabbor RAZZOQOV  
(«O'zbekiston» NMU Bosh  
muhabbir o'rinnbosari),  
Dilmurod RAHMATILLAYEV,  
Dilshoda DADAJONOVA,  
Feruza JALILOVA  
(Bosh muhabbir o'rinnbosari),  
Sobirjon SHARIPOV,  
Ergashvoy SARIQOV.

Manzilimiz:  
700129,  
Toshkent shahri,  
Navoiy ko'chasi, 30-uy.  
Obuna indeksi: 198.  
e-mail: tong1924@mail.ru  
Tel: 144-27-25 144-63-08  
Tel/faks: (99871) 144-38-10

Rassomlar:  
Nodira MIRZAYEVA,  
Feruz MATYOQUBOV.

Noshir:  
«O'zbekiston»  
nashriyot-matbaa ijodiy uyi.  
Gazeta «O'zbekiston»  
nashriyot-matbaa ijodiy uyi  
kompyuter bo'limida terib  
sahifalandi va chop etildi.  
Gazeta haftaning dushanba  
kuni chiqadi. Hajmi A-3,  
2 bosma taboq.  
Adadi - 20641  
Buyurtma N: J 3871